

OGAHIYNING TARIXIY ASALARI ." RIYOZ UD-DAVLA " VA "ZUBDAT UL-TAVORIX".

Farg'ona davlat universiteti Filologiya
fakulteti filologiya va tillarni o'qitish:
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Akbaraliyeva Feruza

Annotatsiya: Maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik namoyondasi Muhammad Rizo Ogahiyning hayoti va ijodi, "Riyo ud davla" va "Zubdat ul- tavorix" asari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Rizo Ogahiy, tarixnavislik, mohir tarjimon, "Riyo ud- davla" asari , mirob, "Zubdat ul-tavorix".

Annotation: The article provides information about the life and creative activity of Muhammad Rizo Ogahiy, a prominent representative of the Khorezm literary environment, as well as about his work "Riyo ud-davla."

Keywords: Muhammad Rizo Ogahiy, historiography, skilled translator, "Riyo ud-davla" work, mirab (water master).

Аннотация: В статье приведены сведения о жизни и творчестве Мухаммада Ризо Агхий, крупного представителя литературной среды Хорезма, а также о его произведении «Риёз уд-давля».

Ключевые слова: Мухаммад Ризо Агхий, историография, искусный переводчик, произведение «Риёз уд-давля», мираб.

Kirish: Ogahiy (taxallusi; to'liq ism-sharifi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li) (1809.17.12, Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'i — 1874.14.12) — shoir, tarixchi, tarjimon. Mirob oilasida tug'ilgan. Xiva madrasalarida tahsil ko'rgan. Arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassiklari asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan. 1829 yilda amakisi va ustoz Munis vafot etgach, Xiva xoni Olloqulixon Ogahiyning Munisning o'rniga mirob etib tayinlagan. Shu davrdan

e'tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug'ullangan. Qizg'in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg'ul bir paytda otdan yiqilib, oyog'i «shakarlang» (shol bo'lib qolgan). 1857 yildan miroblik vazifasidan iste'fo bergan. Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g'amgin, kasalmand ahvolda kun kechirgan.

Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti — «Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori», 1872) bizgacha to'la yetib kelgan. Devon an'anaviy tartibda tuzilgan, 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida — jami 18000 misradan iborat. Devonga «Ash'ori forsiy» nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundariyasi markazida ishq mavzui turadi.

Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita; she'riyatida ishq — iymon, e'tikrd, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baqo berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan. Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan: o'zigacha bo'lgan 7—8, 10—12 baytli g'azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan, mustazod janrining qo'sh orttirma misrali yangi shaklini kashf etgan: Ey yor, sango ushbu jahon bog'i aro gul bir oshiqi hayron, diydoriga shaydo,

Bir shuyftadur kokili mushkulinga sumbul ham holi parishon, ham boshida savdo.

Shoir aruzning juda ko'p bahrlaridan foydalangan. Uning g'azallari «Shashmaqom»ning hamma kuylariga tushadi, Xorazm xalq ohanglariga mos keladi.

Ogahiy «Riyozi ud-davla» («Saltanat bog'lari», 1844), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i», 1845—46), «Jome' ul-voqeoti sultoni» («Sultonlik voqealarini

jamlovchi», 1857), «Gulshani davlat» («Davlat gulshani», 1865), «Shohidi iqbol» («Iqbol guvohi», 1872) va boshqa tarixiy asarlarida Olloqulixon, Rahimqulixon (1843—46), Muhammad Aminxon (1846 — 55), Sayid Muhammadxon (1856—64), Muhammad Rahim II (1864—1910) hukmronligi davrida Xorazmda yashagan o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq xalqlarining tarixi, madaniy va ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining boshqa xonliklar bilan munosabati va boshqa tarixiy voqealar aks etgan.

Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan g‘oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma‘rifiy tarbiyasiga ta’sir qilgan. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag‘ishlab qasidalar yozgan. Ogahiyning «Qasidai nasihat» asari Feruzga bag‘ishlangan. U o‘z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo‘llarini belgilab beradi. Qasida masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, unda shoirning siyosiy-ma‘rifiy qarashlari yorqin aks etgan. Ogahiy fikricha, har qanday davlat boshlig‘i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Podshoh himmatli, shijoatli, adolatli, g‘ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli, kambag‘alparvar bo‘lishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo‘lsa, uning hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Ogahiy davlatni boshqarishning yo‘llarini ham ko‘rsatib o‘tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog‘i lozim. U aysh-ishratdan, fitna va g‘iybatdan, g‘aflatdan, yalqovliqdan, zulm-razolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo‘lishi kerak. Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to‘g‘risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib, arzxonalarga qo‘ydirgan, ko‘p ezgu ishlarni amalga oshirgan. Shu bois ham Ogahiy tarixiy asarlari badiiy nasr sifatida hamda 19-asr Xorazm voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlar sifatida qimmatlidir. Ogahiy «Ravzat us-safo» (Mirxond), «Tarixi jahonkushoyi Nodiriy» (Muhammad Maxdiy Astrobody), «Badoe’ ul-vaqoe’» (Z. Vosifiy), «Miftohi ut-tolibin» (Mahmud binni Shayx Ali G‘ijduvoni), «Tabaqoti Akbarshohiy» (Muhammad Muqim Hirotiy), «Tazkirai Muqimxoniy» (Muhammad Yusuf Munshiy), «Ravzat us-safoyi Nosiriy» (Rizoqulixon Hidoyat),

«Axloqi Muhsiniy» (Koshifiy), «Qobusnoma», «Zubdat ul-hikoyot», «Sharhi daloil ul-hayrat» (Muhammad Voris), «Guliston» (Sa'diy), «Yusuf va Zulayho» (Jomiy), «Shoh va gado» (Hiloliy), «Haft paykar» (Nizomiy) va boshqa tarixiy-badiiy asarlarni fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilgan. Ogahiy «Haft paykar»ni nasriy yo'l bilan, «Guliston»ni qisqartirib, keng kitobxonlarga tushunarli qilib tarjima etgan. «Yusuf va Zulayho» hamda «Shoh va gado» dostonlarini esa baytma-bayt tarjima qilib (kirish qismidan tashqari), aniq ijodiy tarjima namunasini yaratgan. «Miftolabin» (), «Ravzat us-safoyi Nosiriy», «Tabaqoti Akbarshohiy» «Tazkirai Muqimxoniy» «Firdavs ul-iqbol» «Shohidi iqbol» «Yusuf va Zulayho» (, «Ta'viz ul-oshiqin» asarlarining qo'lyozma nusxalari Toshkent, Dushanba va Sankt-Peterburgda saqlanadi. «Zafarnoma» (Ali Yazdiy), «Bahoriston», «Salomon va Ibsol» (Jomiy), «Hasht behisht» (Xusrav Dehlaviy) asarlarining Ogahiy tarjimasi hanuzgacha topilmagan.«Ta'viz ul-oshiqin» Xivada toshbosmada nashr etilgan (1905—09). O'zbekistonda ko'chalar, maktablar, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri, istirohat bog'i va boshqa muassasalarga Ogahiy nomi berilgan. Qiyot qishlog'ida Ogahiy bog'i tashkil etilib, shoirning uy-muzeyi ochilgan; muzey oldida Ogahiyga haykal o'rnatilgan.

Ogahiyning qimmatli asarlaridan biri **“Riyoziy ud-davla”** asari bo'lib, bu asar 1825-yildan 1842-yilgacha Xorazmda bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi.Ogahiy o'zining “Riyoziy ud-davla” asarini, shuningdek, quyida keltirilgan asarlarni yozar ekan, o'sha davr tarixchilarning an'anasiga muvofiq, hamd va nat bilan boshlaydi. So'ngra o'z hayoti haqida qisqacha gapirib, Olloqulixonni maqtaydi. Undan so'ng tarix ilmiga ta'rif berib, bu asarning yozilish tarixiga va buning yozilishiga sababchi bo'lgan shaxslar haqida gapiradi. So'ngra voqealarni bayon etishni Olloqulixonning tug'ilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealar haqida yozadi. Asarning muqaddimasida muallif juda kamtarlik bilan bu asarning yozilishi haqida gapiradi: “ Erniyozbekning o'gli Muhammad Rizo mirob taxallusim Ogahiy o'z ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Yoshlik chog'larimda boshimga har xil va turli-tuman tashvishlar tushdi. Har tarafdin boshimga balo toshi yog'di. Hamisha

ko'nglimga tinchsizlik va ta'bimda xavf hukm surar edi. Lekin jahondin yetgan har xil alamlardan olimlar va shoirlarning suhbatida bolish bilan biroz tarqatar edim. O'z ahvoli haqida yuqorida zikr etilgan ma'lumotlarni keltirganidan so'ng, bu asarning yozilishi haqida quyidagilarni keltiradi: "Bu asarni yozishga boshladim. Asar yozish davomida menga Muhammad Yoqub mehtar yordam berdi. Bu asarni "Riyoziy uddavla" nomi bilan atadim.

XIX asr Xorazm tarixiga oid asosiy qo'lyozma manbaalardan biri (1845-846) yili Ogahiy tarafidan yozilgan "Zubdat ut-tavorix" nomli asaridir. Bu asar "Riyoziy uddavla" asaridan keying davrni ya'ni 1843-yildan 1846-yilgacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Asarning avvali: " Siposi vofir tuhfasi ul sulton azamat nishon ostoniga nisordurkim" so'zi bilan boshlanib oxiri... "Donish ahlining xotiri xatirlariga ma'lum bo'lsinkim, bu muxtasarning ta'lifi hijriya 1262 (1845-1846)-yilda ilon rabial-avval oyining to'rtida dushanba kuni ixtimom topdi. Saxv xato va nuqsonni ayb qilmay ma'zur tutsinlar, balki lutf va karam ko'rgizib, islox bersinlar... Tammat ul-kitob. Sanasi (1879-1880). Roqimi in kitob Mulla Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devon marhumiy", so'zlari bilan tamom bo'ladi. Ogahiy asarning avvalida "Riyoziy uddavla" asarini tugatib, Rahimqulixonning oldiga borganligi va o'zining bu "Zubdat ut-tavorix" nomli asar yozishni boshlaganligi haqida gaopiradi. Ogahiy bu asarni ikki qismga bo'ladi. Birinchi qismda Rahimqulixonning tug'ilishidan xonlik taxtiga chiqquncha bo'lgan voqealar haqida gapiradi. Ikkinchi qimsda esa Rahimqulixonning xonlik taxtiga chiqqandan song to vafotigacha bo'lgan voqealar haqida yozadi.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki Ogahiyning tarixiy asarlari nafaqat Xorazm davlatining tarixini o'rganishga, balki Xorazmga chegaradosh bolgan mamlakatlarning ham tarixini va madaniyatini o'rganishga asos deb hisoblashimiz mumkin. Asarda hukmdorlar faoliyati, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, iqtisodiy jarayonlar hamda xalq turmush tarziga oid qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yaratilgan "Riyoziy uddavla" "Zubdat ul-tavorix" asari Xorazm tarixnavislik maktabining yuksak namunasi hisoblanadi. Bu

asar orqali biz 1825-yildan 1865-yilgacha Xorazmda sodir b6lган tarixiy voqealarni ushbu asarlardan bilib olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar r6yhati:

1. Abdullayev. V. 6zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1964 y.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar.- Toshkent, Fan, 1978 y.
3. Sharafiddinov. O. Adabiy tanqid va yangi tafakkur // 6zbekiston adabiyoti va sanʼati.-2001- 19 oktabr.